



**O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish
respublika ilmiy-metodik markazi**

ANTROPOTSENTRIZM: SAYYORA BOSHQARUV PANELI

Saparova. D. A Samarqand viloyati Pedagogik mahorat
markazi geografiya va IBA fani metodisti

**MAQSAD. INSONIYATNING BIOSFERA
TA'SIRI VA BOSHQARUV PANELIDAGI
MA'SULIYATNI ANGLASH**

ANTROPOTSENTRIZM NIMA?



Insoniyat sayyorani boshqarish qudratiga ega bo'ldi, lekin hali bu qudratni oqilona ishlatish darajasidagi axloqiy va ma'naviy yetuklikka erishmadi. Mavzuning bosh g'oyasi — ana shu yetuklikka erishish va ekologik etikani hayot tarziga aylantirishdir.

Dunyo markazida inson turishi va barcha resurslar uning ehtiyojlari uchun xizmat qilishi haqidagi qarash

Evolutsiyasi: Uyg'onish davridan sanoat inqilobigacha

Asosiy g'oya: Inson — tabiatning gultoji va uning egasi !

O'rganishdan maqsad

Antropotsentrizmni o'rganish shunchaki nazariy bilim emas, balki amaliy va axloqiy maqsadlarni ham ko'zlaydi:

- **Inson mohiyatini anglash:** Insonning koinotdagi o'rni, uning o'ziga xosligi va boshqa mavjudotlardan farqini tushunish.
- **Mas'uliyatni belgilash:** Agar inson olam markazi bo'lsa, u tabiat va kelajak avlod oldida qanday javobgarlikka ega? Ushbu savolga javob topish.
- **Qadriyatlar tizimini shakllantirish:** Islohotlarning oliy maqsadi "inson manfaati" ekanligini asoslash.
- **Ekologik muammolarni tahlil qilish:** tabiatni insonning yashash muhiti sifatida asrash g'oyasiga o'tish



ZAMONAVIY YONDASHUV: "INSON MARKAZLASHGAN" TAMOYILI

Soha	Qo'llanilishi
Lingvistika	Tilni inson tafakkuri va dunyoqarashi prizmasi orqali o'rganish (Antropotsentrek paradigma)
Ekologiya	Tabiatni asrash-insoniyatning omon qolishi uchun zaruriy shart ekanligini anglash
Huquq	Inson huquqlarining har qanday davlat manfaatlaridan ustunligi




SAYYORA BOSHQARUV PANELI (PLANETARY DASHBOARD)

Yer holatini real vaqt rejimida yoki muayyan davrlar kesimida kuzatish imkonini beruvchi ilmiy indikatorlar (ko'rsatkichlar) majmuidir. U asosan Xalqaro Geosfera-Biosfera Dasturi (IGBP) tomonidan ishlab chiqilgan va insoniyatning sayyoramizga ko'rsatayotgan ta'sirini vizualizatsiya qilishga xizmat qiladi.

•



ILMIY TEZLANISH: “BUYUK TEZLANISH”




“Sayyora boshqaruv paneli”ning asosiy fundamenti-Antopotsen davri tushunchasidir. Bu davrda inson faoliyati Yerning asosiy geologik va ekologik jarayonlarini belgilovchi asosiy kuchga aylandi.

Tizim 24 ta asosiy indikatorga tayanadi, ular ikkita katta guruhga bo‘linadi:

Ijtimoiy-iqtisodiy trendlar (12 ta ko‘rsatkich): Aholi soni, YaIM, energiya iste‘moli, suvdan foydalanish, transport va turizm kabi insoniy faoliyatlar;

Yer tizimi trendlari (12 ta ko‘rsatkich): Atmosferadagi CO₂ miqdori, okeanlarning kislotalanishi, o‘rmonlarning kamayishi, biosfera yaxlitligi va yer yuzasi harorati.





SAYYORA BOSHQARUV PANELIDA NIMALAR O'RGATILDI?

Tizimli bog'liqlik: Inson iqtisodiyoti va tabiat sikllari(uglerod, azot, suv) qanday qilib yagona, ajralmas tizimga aylanganligi

Sayyora chegaralari (Planetary Boundaries): Yerning o'z-o'zini tiklash qobiliyati qayerda tugashi va insoniyat qaysi nuqtada “xavfsiz hudud”dan chiqib ketishi (masalan, iqlim o'zgarishi yoki bioxilma-xillik yo'qolishi)

Ma'lumotlar tahlili: Murakkab ekologik ma'lumotlarni grafiklar va ko'rsatkichlar orqali o'qish va ulardan xulosa chiqarish.

Barqaror boshqaruv: Resurslarni faqat iste'mol qilish emas, balki sayyoraviy barqarorlikni saqlab qolgan holda boshqarish modellari.



BOSQARUV PANELINING MAQSADI!

Ogohlantirish tizimi: Sayyora tizimidagi o'zgarishlarni (masalan, haroratning keskin ko'tarilishi)erta aniqlash va xavf haqida xabar berish

Strategik qaror qabul qilish: Hukumatlar va xalqaro tashkilotlar uchun iqtisodiy qarorlar qabul qilish. Hukumatlar va xalqaro tashkilotlar uchun iqtisodiy rivojlanishni rejalashtirishda ekologik cheklovlarni hisobga olishga yordam berish.

Mas'uliyatni anglash: Insoniyatga o'z faoliyatining global miqiyosidagi natijalarini ko'rsatish orqali "Sayyoraviy mas'uliyat" hissini shakllantirish

Muvozanatni saqlash: Inson ehtiyojlari va tabiat imkoniyatlari o'rtasidagi oltin o'rtaliqni topish.



IQLIM O'ZGARISH OQIBATLARI

Muzliklarning erishi “albedo effekti” kamayadi va okean ko‘proq issiqlikni yutadi

Oqibat: dunyo okean sathining ko‘tarilishi va global oqimlarning o‘zgarishi

Muzliklarning kamayishi va suv tanqisligi. Pomir va Tyanshan muzliklari erimoqda

Cho‘llashish jarayoni tezlashishi, qishloq xo‘jaligi uchun suv yetishmasligi va chang bo‘ronlarining ko‘payishi

Amazoniya o‘zining qayta tiklash xususiyatini yo‘qotmoqda. Bu global isishni tezlashtiradi.


Amaliy mashg'ulot

MUVOZANAT FORMULASI

Antropotsentrizm (inson manfaati) va Ekotsentrizm (tabiat manfaati) o'rtasidagi oltin o'rtaliqni toping.

Quyidagi Venn diagrammasini to'ldiring:

- Chap doira:** Faqat inson ehtiyojlari (Sanoat, foyda).
- O'ng doira:** Faqat tabiatni asrash (Qo'riqxonalar, taqiqlar).
- Markaz :** Har ikki tomon uchun foydali bo'lgan yechimlar.



Mening izim

EKOLOGIK IZIMNI HISOBLAYMAN

O'z kundalik hayotingizni tahlil qiling va quyidagi so'rovnomani to'ldiring:

Transport: Maktabga qanday kelasiz? (Avtomobil / Avtobus / Piyoda) _____

Chiqindi: Bir kunda o'rtacha necha dona plastik mahsulot ishlatasiz? _____

Suv: Tishingizni yuvayotganda jo'mrakni o'chirib qo'yasizmi? _____

Mening xulosam: Agar yer yuzidagi barcha insonlar men kabi yashasa, tabiatga qanday ta'sir ko'rsatadi?

XULOSA

Mas'uliyatli boshqaruv: Antropotsentrizm o'z o'rnini "Ma'rifiy antropotsentrizm" yoki "Ekotsentrizm"ga bo'shatib berishi lozim. Endi inson tabiatdan faqat foydalanuvchi emas, balki uning saqlovchisi (vasiysi) sifatida harakat qilishi shart.

Barqaror rivojlanish: Sayyoramizning resurslari cheklangan. Boshqaruv paneli bizga "cheksiz iste'mol" modelidan "oqilona tejamkorlik" modeliga o'tish vaqti kelganini ko'rsatmoqda.

Yaxlitlik: Insoniyat o'zini tabiatdan ayro holda tasavvur qila olmaydi.

Tabiatning tanazzuli — insoniyatning tanazzulidir.

E'tiboringiz uchun rahmat!

TABIATNI ASRASH VA KELAJAK AVLODGA



YETKAZISHDA MAS'ULMIZ !